

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY ISHLARNING AHAMIYATI**

**Yo'ldosheva Nazokat Ulug'bek qizi**

*Surxondaryo viloyati Termiz tumani 13-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Yoqubov Erali Yusubali o'g'li**

*Surxondaryo viloyati Termiz tumani*

*13-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq « dars » degan muqaddas sozdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bolgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, ta'lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, savodxonlik, tarbiya*

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini



ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash boshlang'ich sinf o'quvchilari qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. boshlang'ich sinf o'quvchilari dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi. Aqliy tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarinilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim oz navbatida kompyuter dasturlari yordamida oqitish, masofadan oqitish, internet tarmoqlari asosida oqitish, media – ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda oquvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga kora didaktik oyinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Agar o'quvchilarni yaxshilab kuzatib, psixologiyasini o'rganib olsak bu ulardagi muammo qanday paydo bo'lganligini tushunishga yordam beradi, shuningdek muammoni turli yo'llar bilan ko'rib chiqishga chorlaydi. Foydali tadqiqotlar va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun imkoniyatlar yaratish zarur. O'quvchilarga ilgari bilmagan muammolari haqida hayratlanarli narsalarni topishga imkon beradi. O'quvchilarga taxminlar qilishdan va ko'p ma'lumotsiz fikrlarni shakllantirishdan saqlaydi. O'quvchilarga muammoning yechimini topish nima uchun muhimligi haqida o'ylashga vaqt beradi.

Baholash faoliyatida tanqidiy va analitik fikrlashni rag'batlantirish orqali siz o'zingizning o'quvchilaringizga sinovdan o'tishda ijodiy imkoniyat yaratishga imkon berasiz. Ular ushbu turdagi ko'nikmalar haqiqatan ham qadrligini bilishlari kerak. Agar ijodkorlik hammamizda bo'lsa va bu aniq bo'lsa - demak, biz ham cheksizmiz. Sinfimizda formativ baholashdan samarali foydalanish bu o'quvchilarimizning rivojlanishiga yordam beradigan eng yaxshi usullardan biridir.





O'qitish ijodiy ravishda muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

- Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
- Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
- Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
- Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarinilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur–inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Interfaol oyinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yonalishdagi turlarga ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina, ular o'zlarining iste'dod va iqtidorlarini namoyon qila olishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Epstein, J. L., & Dauber, S. L. (1991, January). School programs and teacher practices of parent involvement in inner-city elementary and middle schools. *Elementary School Journal*, 91(3), 289–305.



2. Galyean, B. C. (1983). Mind sight: Learning through imaging. Long Beach, CA: Center for Integrative Learning.

3. Gardner, H., & Hatch, T. (1989, November). Multiple intelligences go to school. Educational Researcher, 18(8), 4-9

4. K.Meyer. Talents, abilities and educational justice. - 2020.  
<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00131857.2020.174269>

